

Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovini o‘tkazish uchun nemis tili fanidan test topshiriqlari spetsifikatsiyasi

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o‘quv me’yoriy hujjatlarga muvofiq qo‘srimcha, o‘zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

1. Test topshiriqlarining qo‘llanishi

Spetsifikatsiya Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni nemis tili fanidan oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovlarini o‘tkazish uchun o‘qituvchilarning bilim darajasini aniqlab berishga mo‘ljallangan.

2. Test sinovi topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar

- Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va oliy ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan fan dasturi;
- Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o‘rtta ta’lim uchun nemis tili fanidan takomillashtirilgan o‘quv dasturi, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘ridsida” 2022-yil 2-avgustdagи VM-425-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

3. Nemis tili fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi

Nemis tili fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti talabgorlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darjasini bilan birga mantiqiy fikrashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo‘naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishiladi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kodi	Tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi
	1. Grammatika
1.1	Ot. Otlarda son va rod. Otlarning turlanishi: starke, schwache und weibliche Deklination. Artikl va uning turlari: aniq, noaniq artikllar. Artikllarning qo'llanmaslik holatlari. Son (sanoq va tartib sonlar). Predloglar: Dativ, Akkusativ, Dativ-Akkusativ, Genitiv kelishigi predloglari, predloglarning artikllar bilan birikishi.
1.2	Olmosh: kishilik, egalik, ko'rsatish, noaniq, so'roq, nisbiy olmoshlar ularning turlanishi va <i>man</i> shaxsi noaniq va <i>es</i> shaxsiz olmoshlar.
1.3	Sifat va ravish. Ularning oddiy, qiyosiy va orttirma darajalari, umumiy qoida va istisno holatlar. Sifatlarning turlanishi, turlanmaydigan sifatlar.
1.4	Fe'l. Uning aktiv va passiv shakllari (präsens, präteritum, perfekt, plusquamperfekt, futur I). Modal fe'llar, o'zlik fe'llari, ajraladigan va ajralmaydigan old qo'shimchali fe'llar. Fe'llarning tuslanishi, ularda so'z tartibi predlog bilan yoki predlogsiz boshqaruvi, kuchli va kuchsiz fe'llarda partizip II shaklining yasalishi. Modal fe'llar ekvivalentlari: haben/sein+infinitiv, Modal fe'llar va ularning aktiv va passiv gaplarda qo'llanilishi.
1.5	Qo'shma gaplarda zamonlar moslashuvi. Darak, so'roq, buyruq gaplar hamda ularda so'z tartibi. Gaplarning inkor shakllari. "aber, und, oder, denn, sondern" bog'lovchilari orqali bog'langan qo'shma gaplar. "Nicht nur... sondern auch, weder... noch ... murakkab bog'lovchilari va deshalb, trotzdem, außerdem" bog'lovchi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma gaplar. Ergash gapli qo'shma gaplar. "dass, ob, weil, da,wenn,damit, nachdem..." kabi bog'lovchili ergash gaplar. Ularda so'z tartibi. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.
1.6	Infinitivli birikmlar : zu bilan va zusiz ishlatiladigan infinitiv. Um .. zu, ohne.. zu, (an) statt ... zu infinitiv tuzilmalari.
2. Leksika	
2.1	O'rganilgan mavzular bilan bog'liq leksik birliklar, so'z yasash elementlari, leksik birliklarning ko'p ma'noliligi, leksik va mantiqiy moslashuv, antonimlar, sinonimlar va boshqa umumleksik munosabatlar.
3. O'qish	

3.1	Gazeta va jurnallardan olingan xabarlar, e'lonlar; sodda ilmiy va ilmiy-ommabop matnlar; internet tarmog'i va boshqa manbalardan olingan faktlarga asoslangan matnlar; qisqa rasmiy hujjatlar; badiiy asarlardan olingan parchalar; asbob-uskuna va qurilmalarni ishlatish bo'yicha yo'riqnomalar.
-----	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

5. Nemis tili faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1.	quyi kognitiv ko'nikma darajasi	til birliklari (qo'shimcha, so'z va gaplar)ning leksik-grammatik xususiyatlarini bilish va tushunish; grammatikaga oid asosiy qoida, tushuncha va atamalarni bilish va tushunish; grammatik qoidalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushungan holda ularni gapda to'g'ri qo'llash.
2.	yuqori kognitiv ko'nikma darajasi	gap tarkibida ma'nosini taxmin qila olish mumkin bo'lgan yangi so'zlarni to'g'ri qo'llay olish; so'z turkumlarining grammatik xususiyatlarini tahlil qila olish; matn mazmunini va uning asosiy g'oyasini tushungan holda ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlik, o'xshashlik va farqlarni, voqeа va hodisa sabablarini tahlil qilish; rasmda tasvirlangan voqeа-hodisaning gap mazmuni bilan bog'liqligini tahlil qilish; tahlil jarayonida berilgan ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish.

6. Nemis tili fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar

Nemis tili faniga oid test varianti talabgorlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi va ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda chet tillar (ingлиз, nemis, fransuz tillari) faniga oid fan dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab qo'yilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida olinadi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar			Kodi
Nemis tili	Nutqiy kompetensiya	O'qish	Eslatmalar, gazeta va jurnallardan olingan xabarlar va e'lonlarni to'liq tushuna olish.	1.1.1
			Ilmiy va sodda matnlar hamda badiiy asarlardan olingan parchalarning asosiy mazmunini tushunish, ma'lumotlarni qidirib topa olish va ular bilan ishlash.	1.1.2

			Ilmiy-ommabop matnlar, badiiy asarlardan olingan parchalarning asosiy mazmunini tushunish hamda bajarilishi kerak bo‘lgan topshiriqlarga ilmiy yondashish, mantiqiy fikrlagan holda ma’lumotlarni taqqoslash, tahlil qilish, bir-biriga bog‘lab xulosa chiqarish.	1.1.3
			Matnning strukturaviy va semantik bog`liqligini tushunish. Ilmiy-ommabop matnlar, badiiy asarlardan olingan parchalardagi qisqacha ma’lumotlarni to`g`ri tushunish hamda bajarilishi kerak bo‘lgan topshiriqlarga ilmiy yondashish, mantiqiy fikrlagan holda ma’lumotlarni taqqoslash, tahlil qilish, bir-biriga bog‘lab xulosa chiqarish.	1.1.4
Lingvistik kompetensiya	Grammatik kompetensi ya		Atoqli va turdosh otlar, otlarda son (birlik va ko‘plik shakli), otlarda kelishik, otlarning kuchli, kuchsiz, jenskiy va maxsus turlanishi, artikl turlari (aniq va noaniq artiklning, artiklning ishlatilmasligi), son (sanoq va tartib sonlar)ni bilish.	2.1.1
			kishilik, egalik, ko‘rsatish, so‘roq, nisbiy, man shaxsi noaniq va es shaxssiz olmoshlarni bilish.	2.1.2
			Sifatlarning kuchli, kuchsiz, noaniq artikllar, kein inkor olmoshi va egalik, olmoshlari bilan ishlatilishi, sifat darajalari (oddiy, qiyosiy va ortirma); ravish turlari, ravishlarning yasalishi, ravish darajalari (oddiy, qiyosiy va ortirma), umumiy qoida va istisno holatlarni bilish.	2.1.3
			Fe'l zamonlari (präsens, präteritum, perfekt, plusquamperfekt, futur I), aniq va majhul nisbati, kuchli va kuchsiz fe'llarning shaxs son va zamon qo‘sishchalarini olib tuslanganda fe'l o‘zagidagi tovush o‘zgarishi, harflarning tushib qolishi, ularning to‘g`ri tuslanishi, modal fe'llar va ularning aktiv va passiv gaplarda qo‘llanilishini bilish.	2.1.4

		Gap turlari (darak, so‘roq, undov va buyruq gaplar), sodda gaplar (yig‘iq va yoyiq gaplar), qo‘shma gaplar (bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplar) va ularda ishlatiladigan bog‘lovchilar va so‘z tartibini bilish. Qo‘shma gaplarda zamonlar moslashuvini bilish, darak, buyruq va so‘roq gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantira olish.	2.1.5
		Infinitivli birikmalar: zu bilan va zusiz ishlatiladigan infinitiv. <i>um... zu, ohne...zu, (an)statt ...zu</i> infinitiv tuzilmalarini bilish.	2.1.6
		Gap tarkibida yo‘l qo‘yilgan grammatik xatolikni aniqlay olish.	2.1.7
Leksik kompetensi ya		O‘rganilgan mavzular bilan bog‘liq leksik birliklarni mantiqiy fikrlagan holda to‘g‘ri qo‘llay olish, keng tarqalgan, kundalik va kasbiy vaziyatlarda ishlatiladigan so‘z va so‘z birikmalarini bilish.	2.2.1
		So‘z yasash elementlari, leksik birliklarning ko‘p ma’noligi, leksik va mantiqiy moslashuv, antonim, sinonim va boshqa umumleksik munosabatlar, tili o‘rganilayotgan mamlakatga xos bo‘lgan replika-klishelarni qo‘llashni bilish.	2.2.2
		Rasm yoki chizma yordamida ifodalangan fikrni tushunish.	2.2.3

7. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to‘ldirish bilan birga):

- 40 ta test topshirig‘i uchun 80 daqiqa.

*Izoh: Ushbu spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Ilmiy-metodik kengashning 2022-yil 30-noyabrdagi 6-son yig‘ilishi qarori bilan ma’qullangan.